



“FUQAROLARNING SIYOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA RIOYA
ETILISHI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI”

sudyasi Otaboev Jasur Xakimjanovich
Toshkent Viloyati Bekobod Tumanlararo Sudining

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq erkinliklari, huquqiy munosabatlarning shakllanishi va davlat tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasi, fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, va bu huquq va erkinliklarni himoya qilishda prokuror nazoratining o‘ziga xosligi haqida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: fuqaro, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquq, erkinlik, ‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ijtimoiy, milliy, irqiy, diniy, shovinistik, prokuror, huquq, siyosiy.

Abstract: This article briefly discusses the socio-economic rights and freedoms of citizens, the formation of legal relations and the protection of the rights and freedoms of citizens by the state, the personal rights and freedoms of citizens, and the uniqueness of the prosecutor's control in the protection of these rights and freedoms.

Key words: citizen, socio-economic, political right, freedom, Constitution of the Republic of Uzbekistan, social, national, racial, religious, chauvinist, prosecutor, law, political.

Inson va fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari individning hamda jamiyatning muhim tomonlariga ta‘sir qiladi. Yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi ilgari davlat tomonidan fuqarolarning shu xususdagi munosabatlarini hukmron ravishda otalig‘ida ushlab turish siyosatidan uzoqlashtirmoqda, fuqaro va insonlar o‘z ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini o‘zlari bevosita himoya qilishlari va huquqlari uchun kurashishlarini zamon talabi qilib qo‘ymoqda. Fuqarolarning o‘zlari tomonidan faollikni oshirilishi va individual javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlariga olib kelaymoqda.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, aholining mehnat bilan bandligi masalasi ilgarigiga nisbatan o‘zgacha shakl olganligi, tadbirkorlikni rivojlanishi, mehnat bilan shug‘ullanayotgan shaxslar bilan mehnat qilmayotgan shaxslar o‘rtasida, ya‘ni ishga joylashganlik va joylashmaganlik munosabatlari oqibatida fuqarolar o‘rtasida toifalanish paydo bo‘lganligi biz uchun odatdagi hoi emasdir. Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni muhofaza qilinishi konstitutsion normallashtirilishga asoslangan. Konstitutsiyamizning 36-moddasi O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi mulkdor bo‘lish huquqini o‘zida aks ettirgan. Bankka qo‘yilgan omonatlari sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanishini mustahkamlagan.

Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi bilan bog‘liq hamda amalda bo‘lgan qonunchilik bilan o‘rnatilgan doirada realizatsiya qilinadi. Nazorat faoliyatining mazmuni quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

-O‘zbekiston Respublikasida yagona hokimiyat manbayi va suverenitet tashuvchisi bo‘lib, uning ko‘p millatli xalqi hisoblanadi;



-xalq o'z huquqini, boshqaruvda umumiy ishlar bo'yicha ishtirok etib, shuningdek, o'z vakillari orqali ishtirok etib, realizatsiya qiladi;

-boshqaruvda fuqarolar bevosita ishtirokining shakli bo'lib, tegishli hududda istiqomat qiladigan fuqarolarning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, turli xil masalalar bo'yicha o'tkaziladigan referendumlar xizmat qiladi.

Davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash va saylanish huquqi siyosiy huquqlardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazish huquqini, shuningdek, siyosiy huquqlardan muhimlarini o'tkazishni mustahkamlab qo'ygan.

Jamoat birlashmalari a'zosi yoki ishtirokchisi bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar qatnashadi. Davlat jamoat tashkilotlarining erkin rivojlanishiga kafolat beradi, alohida (yoshlar, bolalar, qariyalar, nogironlar) tashkilotlarga esa moddiy ko'mak beradi. Qonunda jamoat birlashmalarining turli xil tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan, ya'ni jamoat harakatlari, jamoat fondi, jamoat tashkilotlari, jamoat muassasalari.

Ularni bir-biridan majburiy belgisi sifatida a'zolar soni ajratib turadi. Konstitutsiyaga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishini, Konstitutsiyaviy tuzum asosini o'zgartirishga (ya'ni, salbiy ma'noda) qaratilgan, davlat xavfsizligiga putur yetkazuvchi ijtimoiy, irqiy, milliy va diniy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi jamoat birlashmalarini tashkil etish va ular faoliyatini amalga oshirish mumkin emas. Qonun tili bilan aytganda, Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Prokurorlik nazorati amaliyoti qonunchilikni quyidagi buzilishlarini ko'rsatib o'tadi:

-fuqarolarni siyosiy partiyalarga kirishga majburlash;

-jamoat harakatlarining, siyosiy partiyalarning ta'sis hujjatlarini ro'yxatga olishning belgilangan tartibini buzish;

-qonun bilan belgilangan tartibda siyosiy partiyalarning hududiy bo'limlarini tashkil etish prinsipiga rioya etmasdan, tashkilotlarda partiyaning boshlang'ich bo'g'inlarini tashkil qilish maqsadida, ishlab chiqarish tashkilotlariga kirib borish;

-jamoat birlashmalarining faoliyatlariga qonunga asoslanmagan holda davlat organlarini aralashuvi;

-qurolli harbiy tuzilmalar tashkil etish;

-Konstitutsion tuzumni zo'ravonlik bilan o'zgartirish g'oyasini targ'ibot qilish;

-shovinistik g'oyalarni targ'ibot qilish.

Prokuror tadbirkorlik erkinligini suiiste'mol qilish faktlarini ko'zdan qoldirmasligi kerak, bulardan, tijorat bo'lmagan tashkilotlar tomonidan nizomlarida ko'rsatilmagan faoliyat bilan shug'ullanish, maxsus ruxsatnoma-litsenziya talab qilingan hollarda



litsenziyasiz faoliyat ko'rsatish, boshqa fuqarolarning qonun bilan belgilangan huquq va manfaatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanish hollariga e'tibor berishi va shu hollarga duch kelganida qonun bilan belgilangan vakolatlaridan foydalanib, qonun buzilish hollariga barham berishi lozim.

Fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan muhim va asosiy huquqlaridan biri — fuqarolarning atrof-muhit, tabiatga bo'lgan huquqidir. Bu borada Bosh prokuror barcha prokurorlardan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilikni bajarilishi ustidan nazorat qilishni kuchaytirish, tabiat boyliklarini saqlashni ta'minlashda qishloq xo'jaligi tasarrufida bo'lgan yerlarni izdan chiqarishga, o'rmon boyliklari, hayvonot dunyosining yo'qotilishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurash choralari yuzasidan belgilangan qonunlarning qo'llanilishi ustidan doimiy nazoratni o'rnatish muhim vazifa ekanligini o'z buyrug'ida ko'rsatib o'tgan.

Prokuror nazorati predmeti fuqarolarimizning sog'lig'iga, tabiatga nisbatan huquqbuzarliklarga qarshi qaratilishi, huquqbuzarliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilishi lozimligi, atrof-muhitni sog'lomlashtirish, insonlarning hayot sifatini yomonlashtiradigan ekologik huquqbuzarliklardan ogohlantirish ishlarini kuchaytirilish lozim. Ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan ham O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish yuzasidan prokurorlik faoliyatini samaradorligini oshirish to'g'risida»gi yuqorida ta'kidlangan buyruq mazkur soha bo'yicha ham sohaviy normativ hujjat hisoblanadi.

Inson va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilab berilgan huquq-erkinliklarini himoya qilish prokuratura organlarining jamiyat oldidagi eng muhim vazifasidir. Shunda prokuror vakolatlari:

-fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini, ularning daxlsizlik, fikrlash, so'z va e'tiqod hamda vijdon erkinligi huquqlarini kafolatlarini ta'minlash;

-O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining siyosiy huquqlarini, ya'ni jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish;

-O'zbekiston Respublikasi qonunlarga muvofiq jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga birlashish va ommaviy harakatlarda qatnashish huquqlarini amalga oshirishda ularning erkinliklarini himoyalash;

-shaxsning vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini ushbu idoralar tom onidan ta'minlanishini nazorat qilish;

-fuqarolarning mulkka ega bolish huquqini, ularning mulkini daxlsizligini muhofaza qilish;

-shaxsning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli hamda xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlashga, o'z faoliyatlari uchun o'z vaqtida haq olish, mehnat ta'tiliga chiqish hamda qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalashga doir huquqlarini himoyalash;

Aholini ish bilan ta'minlash va mehnat to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat asosiy vazifa, deb belgilangan. Shunda alohida e'tibor ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan



fuqarolar qatlamlari belgilangan imtiyozlar bilan ta'minlanishiga doir qonunlar ijrosiga qaratilishi ta'kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.И. Басков. Прокурорский надзор. М., «БЕК», 1998.
 2. А.Ж. Давлетов. Прокурорский надзор. Н., «Bilim», 1999.
 3. Прокурорский надзор в Российской Федерации. (Под редакцией А.А. Чувилова). М., 2000.
 4. Jinoiyat protsessi (Umumiy qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.) T., «Yangi asr avlodi», 2002.
 5. Jinoiyat protsessi (Maxsus qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.). T., TDYI, 2003.
 6. Уголовный процесс. Учебник. (Под редакцией Е.Н. Никифоровой). Т., 2002.
- Qo'shimcha adabiyotlar:
1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini. T., TIU, 2001.
 2. Al-Movardiy. Al-ahkomi as-Sultoniya.
 3. Din Gotter. Ombudsman hamda demokratlashtirish va inson huquqlari. 1999, № 1.
 4. Lison al-Arab. 3-kitob, Bayrut, 1997.
 5. Zarif al-Hosimiy. Nizom al-hukm fiy shari' va tarix al-islamiy. 6. Internet WWW. Islam ,uz@ Islamik-World.Net